

“TASDIQLAYMAN”
Gidrometeorologiya xizmati agentligi
direktori



_____**Sh.Khabibullayev**

Gidrometeorologiya xizmati agentligi Markaziy apparat
yig‘ilishining 25-son
B A Y O N I

2026-yil 29-iyun

Toshkent shahri

Raislik qildi: Sh.Khabibullayev – O‘zgidromet direktori.

Qatnashdilar: Direktor o‘rinbosari – I. Karimov, Markaziy apparatning boshqarma, bo‘lim boshliqlari va mas‘ul xodimlari, Meteoinfokom, Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent gidrometeorologiya texnikumi (ro‘yxat bo‘yicha),

KUN TARTIBI:

1. Buxoro va Toshkent viloyatlarida atmosfera havosining turli qatlamlaridagi meteorologik jarayonlarni kuzatish maqsadida tashkil etilgan aerologik stansiyalarni zamonaviy jihozlar bilan ta‘minlash ishlarining borishi to‘g‘risida.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish: Agentlik tizimida korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish, xodimlar o‘rtasida xizmat odobi va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish to‘g‘risida.

3. Ijro-intizomi, murojaatlar bilan ishlash, tizim ishchi-xodimlarining shaxsiy mas‘uliyati va boshqa amalga oshirilishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalar to‘g‘risida.

(Sh.Khabibullayev, I.Karimov... Sh.Khabibullayev)

Yig‘ilish kun tartibidagi masala yuzasidan 2026-yilning iyul oyida “app.ijro.uz” tizimida nazoratga olingan O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish hamda bayonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi hujjatlaridagi topshiriqlar ijrosini samarali tashkil qilish masalalari muhokama qilindi.

Yig‘ilish davomida, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalasi ko‘rib chiqildi, mazkur yo‘nalishda xodimlarga tushuntirish ishlari olib borildi hamda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish zarurligi bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berildi.

Agentlik tizimida energiya samaradorligini oshirish, energiya resurslaridan

oqilona foydalanishni ta'minlash, muqobil va qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish, energiya tejamkor texnologiyalarni keng qo'llash hamda bu borada amaliy choralar belgilash masalalari muhokama qilindi.

Kun tartibidagi masalalarni atroflicha muhokama qilib, yig'ilish

QAROR QILADI:

1. Ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi **K.Baxromov** "Ijro.gov.uz" tizimida **iyul oyida** bajarilishi belgilangan topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli ijrosini ta'minlash maqsadida nazoratni kuchaytirsin hamda **iyul oyi** davomida belgilangan topshiriqlarni sifatli ta'minlash uchun barcha mas'ullarga ogohlantirish bersin.

2. Yuridik ta'minlash, inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (**G.Unorova**) Hidrometeorologik kuzatuvlar va atrof-muhit sifati monitoringi boshqarmasi boshlig'i **A.Mavliyanovga** aerologiya tarmoqlarini tiklash bo'yicha olib borilayotgan ishlarda rahbarlik va nazoratni yetarli darajada ta'minlamaganligi, shuningdek, ishni yakunlamasdan xizmat ta'tiliga chiqib ketganligi sababli ta'tildan qaytgandan so'ng Xayfsan intizomiy jazo chorasini qo'llanilsin.

Toshkent shaxri gidrometeorologiya markazi boshlig'i v.v.b **F.Saidov** Aerologiya tarmoqlarini tiklashda sustkashlikka yo'l qo'ygan Toshkent aerologik stansiyasining barcha xodimlariga Xayfsan intizomiy jazo chorasini qo'llasin.

Yuridik ta'minlash, inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (**G.Unorova**) Toshkent shaxri gidrometeorologiya markazi boshlig'i v.v.b **F.Saidov** hamda uning o'ribosaridan aerologiya tarmoqlarini tiklash bo'yicha olib borilayotgan ishlarda rahbarlik va nazoratni yetarli darajada ta'minlamaganligi uchun tushuntirish xati olsun.

3. Aerologiya tarmoqlarini tiklash ishlari nazorati Toshkent viloyati gidrometeorologiya markazi boshlig'i **X.Toshpulatov** zimmasiga yuklatilsin.

Toshkent viloyati gidrometeorologiya markazi boshlig'i **X.Toshpulatov** Toshkent aerologik stansiyasi xodimlarini lavozim darajalariga loyiqqligini ko'rib chiqib zaruratga ko'ra rahbariyatga taklif kiritilsin.

4. Yuridik ta'minlash, inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (**G.Unorova**) Toshkent aerologik stansiyasini Toshkent viloyati gidrometeorologiya markazi tarkibidan chiqarib, uni Toshkent shahri gidrometeorologiya markaziga barcha shtat birliklari bilan birga o'tkazish yuzasidan tegishli buyruq loyihasini ishlab chiqsin va uni **3 (uch) kun muddatda** rahbariyatga taqdim etsin.

5. Direktorning sohani raqamlashtirish bo'yicha maslaxatchisi **U.Umirzakovga** sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari 3-avlod (next generation) tizimini Agentlikda joriy etish imkoniyatlarini har tomonlama o'rganib chiqish, mavjud infratuzilma, texnik talablar, moliyaviy xarajatlar, kadrlar tayyorlash va boshqa tegishli jihatlarini tahlil qilish hamda rahbariyatga batafsil takliflar va amalga oshirish yo'l xaritasini taqdim etish vazifasi topshirilsin.

6. Direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha

maslahatchisi **Q.Kulumbetov** 30-iyun kuni Yoshlar kuni munosabati bilan Agentlik rahbariyati tomonidan o'tkaziladigan yoshlar bilan uchrashuvning barcha tashkiliy masalalarini hal etsin hamda uchrashuvning yuqori saviyada va kamchiliklarsiz o'tishini shaxsan nazorat qilsin.

7. Yuridik ta'minlash, inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (**G.Unorova**) Yoshlar yetakchisi **A.Rizakulov** bilan birgalikda o'tgan yili Agentlik rahbariyati tomonidan yoshlar bilan o'tkazilgan uchrashuvlar hisobotlarini tayyorlasin, joriy yig'ilish davomida hisobot bersin hamda ushbu yilgi uchrashuvda yoshlar tomonidan bildiriladigan taklif va muammolarni yozib olib, nazoratga olgan holda tegishli choralar ko'rish uchun rahbariyatga taklif kiritсин.

8. Direktorning sohani raqamlashtirish bo'yicha maslahatchisi **U.Umirzakov** Toshkent gidrometeorologiya texnikumida o'qish uchun ochilgan 1080 ta kvota hamda mazkur kvotalarning imtiyozli jihatlari bo'yicha mavjud ma'lumotlarni to'liq umumlashtirsin va ularni Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasiga hamda tegishli idoralarga rasmiy ma'lumot xati shaklida yuborsin.

9. Bino va inshootlar ekspluatatsiyasi boshqarmasi (**P.Artiqov**) Toshkent gidrometeorologiya texnikumi binosining joriy moddiy-texnik holatini to'liq o'rganib chiqsin, mavjud kamchilik va nuqsonlarni aniqlasin hamda ularni bartaraf etish yuzasidan aniq takliflar va chora-tadbirlar rejasini rahbariyatga taqdim etsin.

10. Direktorning axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi **N.Tashxodjayeva** Agentlik faoliyati davomida yaqin hamkorlik qilib kelayotgan ommaviy axborot vositalari xodimlari va bloggerlarga ularning samarali hamkorligi uchun tashakkurnoma xatlarini tayyorlab, yuborishni ta'minlasin.

11. Ushbu yig'ilish qarorida belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilish Ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi **K.Baxromov**ga zimmasiga yuklansin.